# AVSTRALIYA
## HAYVONOT OLAMI

***Sutemizuvchilar, Qushlar, Sudralib yuruvchilar, Hasharotlar***



## ЖИВОТНЫЙ МИР
# АВСТРАЛИИ

***Млекопитающие, Птицы, Пресмыкающиеся, Насекомые***

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent–2013

UDK 504.746 (1-926.83)
28.6 (8 Avs)
A 95
KBK 28.6 (8 Avs) - Зоология. Австралия

*Tuzuvchilar:*

**Laziz Tangriyev, Shuhrat Mirfayozov**

*Taqrizchi:*

**I.Saparboyev** – Respublika ta'lim markazi «Tabiiy va aniq fanlar» bo'limi biologiya fani metodisti

*Tarjimon* **Muhiddin Omon**

Avstraliya hayvonot olami: sutemizuvchilar, qushlar, sudralib yuruvchilar, hasharotlar – Животный мир Австралии: млекопитающие, птицы, пресмыкающиеся, насекомые. / Tuzuvchilar: L.Tangriyev, Sh. Mirfayozov; tarjimon M.Omon. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi, 2013-yil. – 96 b.

ISBN 978-9943-03-510-2

2013/86
A666 L
Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK

Ю 41491
491

UDK 504.746 (1-926.83)
KBK 28.6 (8 Avs)

© G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi. 2013.

ISBN 978-9943-03-510-2

# AVSTRALIYA




Avstraliyaning umumiy maydoni – 7 692 024 kv km dan iborat bo'lib, u Yerni umumiy quruqlik sathining 5% ni tashkil etadi. Uning tarkibiga maydoni 7 659 861 kv km bo'lgan Avstraliya materigi (shu jumladan Tasmaniya oroli ham) va maydoni 32 163 kv km ni tashkil etuvchi sohil bo'yidagi orollar ham kiradi.

Garchi mazkur qit'aning kattagina qismini cho'llar va yarim cho'llar tashkil etsa-da, Avstraliyada turli-tuman landshaft ko'rinishlarini uchratish mumkin, xususan bu yerda oddiy tog' o'tloqlaridan tortib to tropik changalzorlargacha mavjuddir. Avstraliyada o'sadigan aksariyat daraxtlar doimiy yashil tusda bo'lib, ularning ayrimlari, masalan, evkalipt va akatsiya kabilar bu yer uchun xos bo'lgan qurg'oqchilik va o'rmon yong'inlariga ham moslashib ulgurgandir. Mazkur qit'ada dukkaklilar oilasiga mansub nihoyatda ko'p noyob endemik turdagi o'simliklar o'sadi. Nisbatan salqinroq ob-havoga ega Tasmaniyaning o'simlik dunyosi Avstraliyaning o'zinikidan anchagina farq qiladi.

Avstraliya hayvonot olami o'z tarkibiga 379 turdagi sutemizuvchilarni, shu jumladan 159 ta xaltachali hayvonni, 76 ta qo'lqanotlilarni va 69 ta kemiruvchilarni qamrab olgandir. Avstraliyada 800 turdan ortiq qushlar hayot kechiradi. Avstraliya hayvonot dunyosida 950 turdan ortiqroq sudralib yuruvchi qayd etilgan. Avstraliya hayvonlarining deyarli 96% umurtqasizlarga, 90% esa hasharotlar va shilliqqurtlarga to'g'ri keladi.

# АВСТРАЛИЯ





Площадь Австралии – 7 692 024 км². Австралия занимает около 5 % поверхности суши Земли. В неё входят: материк Австралия (включая остров Тасмания) площадью 7 659 861 км² и территории других прибрежных островов площадью 32 163 км².

Хотя большую часть континента занимают полупустыни и пустыни, в Австралии имеются разнообразные ландшафты от аналогичных альпийским лугам до тропических джунглей. Большая часть австралийских древесных растений являются вечнозелёными, а некоторые из них приспособились к засухам или пожарам, как, например, эвкалипты и акации. На континенте произрастает большое число эндемичных растений семейства Бобовые. Флора прохладной Тасмании значительно отличается от флоры большой земли.

Фауна Австралии включает 379 видов млекопитающих, в том числе 159 сумчатых, 76 рукокрылых и 69 грызунов. Австралию населяет более 800 видов птиц. В фауне Австралии насчитывается более 950 видов пресмыкающихся. Животные Австралии почти 96 % приходится на беспозвоночных и 90 % на насекомых и моллюсков.



## Dingo
## Динго



**Dingo** – ikkinchi bor yovvoyilashgan xonaki it bo'lib, u Avstraliyaning mahalliy hayvonot olamida yagona platsentar, ya'ni yo'ldosh turdagi yirtqichdir.

Dingo tashqi tarafdan xuddi o'rtacha bo'yga ega jussasi kelishgan itga o'xshaydi: Tanasining uzunligi boshi bilan birga – 86–122 sm, dumining uzunligi – 26–38 sm. Vazni esa 9,60–19 kg, ayrim hollarda –24 kg gacha yetishi mumkin.



**Динго** – вторично одичавшая домашняя собака, единственный плацентарный хищник в аборигенной фауне Австралии.

Динго выглядит как хорошо сложенная собака средней величины: длина тела с головой 86–122 см, длина хвоста 26–38 см. Вес 9,60–19 кг, редко – до 24 кг.



## Tasmaniya iblisi
## Тасманийский дьявол



**Tasmaniya iblisi** yoki **xaltachali shayton** – yirtqich xaltalilar oilasiga mansub sut emizuvchi hayvondir; ular Sarcophilus turining yagona vakilidir.

Ushbu hayvonning tana uzunligi 50–80 sm, dumining uzunligi–23–30 sm dir. Ushbu hayvonning tana hajmi uning yoshiga bog'liq bo'ladi. Ushbu turga mansub yirik erkak hayvonlarning vazni 12 kg gacha yetib, yelka balandligi 30 sm gacha boradi.

**Тасманийский дьявол**, или **сумчатый чёрт** – млекопитающее семейства хищных сумчатых; единственный вид рода Sarcophilus.

Длина его тела 50–80 см, хвоста–23–30 см. Размеры тела зависят от возраста. Крупные самцы весят до 12 кг при высоте в плечах до 30 см.



## Kulrang g‘arb kengurusi
## Западный серый кенгуру



**Kulrang g‘arb kengurusi** – kengurular orasida anchagina yirik va nisbatan ko‘p uchraydigan turidir. Ushbu tur vakillari Avstraliya janubiy hududining deyarli barcha joylarida keng tarqalgan.

Bu kengurularning eng yirik turlaridan biridir. Uning og‘irligi 28–54 kg, tana uzunligi 0,84–1,1 metr, dumining uzunligi esa 80–100 sm gacha boradi. Tik turgan bu turdagi Kenguruning balandligi taxminan 1,3 metr keladi.

**Западный серый кенгуру** – крупный и часто встречающийся вид кенгуру. Распространён практически по всей южной части Австралии.

Это один из самых крупных кенгуру. Весит 28–54 кг, длина тела 0,84–1,1 метра, длина хвоста – 80–100 см. Высота стоящего животного – приблизительно 1,3 метра.



Katta malla kenguru

Большой рыжий кенгуру



**Katta malla kenguru** – kengurularning orasida eng yirik tur hisoblanadi, u Avstraliyadagi eng yirik sutemizuvchi hayvon, shuningdek hozirgi paytda mavjud bo'lgan xaltali jonivorlarning ham eng yirigidir.

Uning tana uzunligi 1,4 metrga, og'irligi esa – 85kg gacha yetishi mumkin. Dumining uzunligi 90 sm dan 1 m gacha yetadi. Odatda katta malla kenguruning yelkasining balandligi 1,5 m ga teng bo'ladi. Kenguru Avstraliyadan boshqa biror bir qit'ada uchramaydigan hayvondir.

**Большой рыжий кенгуру** – крупнейший из видов кенгуру, крупнейшее млекопитающее в Австралии, крупнейшее из современных сумчатых.

Длина тела достигает 1,4 метра , вес – 85 кг. Хвост может быть длиной от 90 см до 1 м. Обычно рост большого рыжего кенгуру в холке составляет примерно 1,5 м. Кенгуру водятся только в Австралии.



## Daraxt kengurusi
## Древесные кенгуру



**Daraxt kengurusi** – kengurusimonlar oilasiga mansub tur vakilidir.

Daraxt kengurusining umumiy tana uzunligi 1,3 m dan 1,8 m gacha bo'lib, shundan gavdasi va boshining uzunligi 50–80 sm, dumining uzunligi esa 50–90 sm ni tashkil etadi. Ushbu jonivorning og'irligi 5 kg dan 18 kg gacha bo'ladi.

**Древесные кенгуру** – род в семействе кенгуровых.

Длина древесных кенгуру колеблется от 1,3 до 1,8 м, из них длина туловища с головой – 50–80 см, длина хвоста – 50–90 см. Вес животного варьируется от 5 до 18 кг.



## Changaldum kenguru
## Когтехвостые кенгуру



**Changaldum kenguru** yoki **tirnoqdum kenguru** – Kengurusimonlar oilasiga mansub xaltachali hayvon turidir.

Changaldum kenguru – xiyla kichik hayvondir.Uning tana uzunligi 430 mm dan to 700 mm gacha boradi, dumining uzunligi esa – 360–730 mm. Og'irligi 4 – 9 kg oralig'ida bo'ladi.

**Когтехвостые кенгуру**, или **ногтехвостые кенгуру** – род сумчатых семейства кенгуровых.

Когтехвостые кенгуру – мелкие животные. Длина тела от 430 до 700 мм, хвоста – 360–730 мм, вес – 4–9 кг.



## Malla-kulrang vallabi
## Рыже-серый валлаби



**Malla-kulrang vallabi** – kengurusimonlar oilasiga mansub tur vakilidir. Ushbu hayvon Avstraliyaning nisbatan mo'tadil iqlim sharoitiga ega bo'lgan Sharqiy hududlarida, shuningdek Tasmaniya orolida uchraydi.

Malla- kulrang vallabining tana uzunligi boshini qo'shib hisoblaganda, 92 sm dan 105 sm gacha boradi. Dumining uzunligi 70–75 sm. Bu hayvonning vazni 14 kg dan 19 kg gacha yetishi mumkin.

**Рыже-серый валлаби** – вид из семейства кенгуровых. Встречается в районах умеренного климата Восточной Австралии, в том числе на острове Тасмания.

Длина рыже-серого валлаби вместе с головой колеблется от 92 до 105 см. Длина хвоста составляет около 70–75 см. Вес животного – от 14 до 19 кг.



## Sariqoyoq qoya vallabisi
## Желтоногий скальный валлаби



**Sariqoyoq qoya vallabisi** – yoki **sariqoyoq kenguru** – kengurusimonlar oilasiga kiruvchi hayvondir.

Ushbu turga mansub katta yoshdagi hayvonning tana og'irligi 7 kg dan 13 kg gacha boradi, balandligi esa tik turgan holatda, boshini qo'shib hisoblaganda 60 sm atrofidadir.

**Желтоногий скальный валлаби,** или **желтоногий кенгуру** – входит в семейство кенгуровых.

Вес взрослой особи – 7–13 кг, рост (то есть высота головы стоящего животного) – около 60 см.



## Botqoq vallabisi
## Болотный валлаби

**Botqoq vallabisi** – Avstraliyada yashaydigan xaltachali hayvonlarning eng kichiklaridan biridir. Bu hayvon tanasining balandligi 80 sm, dumining uzunligi esa 65 sm keladi.

**Болотный валлаби** – австралийское сумчатое, малого размера (около 80 см в высоту, длина хвоста около 65 см).





## Qoya vallabisi
## Скальные валлаби



**Qoya vallabisi** – yoki **qoya-tosh,(toshloq) kengurusi** – kenguru-simonlar oilasiga mansub xaltachali hayvonlar turi vakilidir.

Qoya vallabisi – odatda kichikroq yoki o'rtacha tana hajmiga ega hayvondir. Uning tana uzunligi 50 sm dan 80 sm gacha, dumining uzunligi esa 40 sm gacha borishi mumkin. Bu turga mansub katta yoshdagi hayvonlarning og'irligi 3 kg dan 9 kg gacha bo'lishi qayd etilgan.

**Скальные валлаби**, или **скалистые (каменные) кенгуру** – род сумчатых семейства кенгуровых.

Скальные валлаби – животные мелкие и средних размеров. Длина тела от 50 до 80 см, хвоста – 40 см. Вес варьирует от 3 до 9 кг у взрослой особи.



## Katta bandiqut
## Большой бандикут



**Katta bandiqut** – Bandiqutsimonlar oilasiga kiruvchi kaltatumshuq bandikutlar turiga mansub hayvondir.

Uning og'irligi 1200 g. Tana uzunligi xuddi boshqa bandiqutlarniki kabi 40 sm dir, dumining uzunligi esa 15 sm. Erkak hayvonlarning tanasi urg'ochilarinikiga nisbatan 5–7 sm ga uzunroq, og'irligi ham 0,5 kg ga farq qilishi kuzatiladi.

**Большой бандикут** – вид из рода коротконосых бандикутов семейства бандикутовых.

Вес – 1200 г. Длина – типичная для других бандикутов (около 40 см), длина хвоста – 15 см. Самцы обычно длиннее на 5–7 см и тяжелее на 0,5 кг.



## Tasmaniya bandiquti
## Тасманийский бандикут



**Tasmaniya bandiquti** yoki **targ'il xaltachali Gyon bo'rsig'i** – Bandiqutlar oilasining uzuntumshuq bandiqutlar turiga kiruvchi hayvondir.

Ushbu hayvon katta yoshdagi vakilining o'rtacha vazni 640 g, tana uzunligi boshi bilan qo'shib hisoblaganda 340 mm, dumining uzunligi esa 100 mm bo'ladi.

**Тасманийский бандикут**, или **полосатый сумчатый барсук Гённа** – вид из рода длинноносых бандикутов семейства бандикутовых.

Средний вес взрослой особи – около 640 г. Длина тела с головой – около 340 мм, хвоста – около 100 мм.



## Quyonsimon bandiqutlar
## Кроличьи бандикуты



**Quyonsimon bandiqutlar** – ushbu nom bilan ataluvchi oilaga mansub sutemizuvchi hayvon turidir.

Ushbu hayvonlarning tana hajmi turlichadir, ularning ba'zilari kichik, ba'zilari kattaroq bo'lishi mumkin. Tanasining uzunligi 20 sm dan 44 sm gacha yetadi, dumining uzunligi 12–22 sm. Tanasining umumiy og'irligi esa 2,5 kg gacha borishi mumkin.

**Кроличьи бандикуты** – род млекопитающих из одноимённого семейства.

Размеры варьируют от небольших до крупных. Длина тела составляет 20–44 см, длина хвоста – 12–22 см. Вес может достигать 2,5 кг.



## Uzuntumshuq bandiqutlar

## Длинноносые бандикуты



**Uzuntumshuq bandiqutlar** – Bandiqutlar oilasiga kiruvchi sut emizuvchi hayvonlardir.

Ular odatda ochiq landshaftga ega, uncha katta bo'lmagan o'rmonlar va sahrolarda yashaydilar. Ularning tana hajmi har xil, ba'zilari nisbatan yirik bo'lsa, boshqa birlari kichikroq bo'lishi kuzatiladi. Ushbu hayvonlarning tana uzunligi 21 sm dan to 40 sm gacha bo'lib, dumining uzunligi esa 9–17 sm ni tashkil etadi.

**Длинноносые бандикуты** – род млекопитающих семейства бандикутовых.

Обитают в открытых ландшафтах, небольших лесах и в пустынях. Размеры варьируют от небольших до крупных. Длина тела составляет от 21 до 40 см, хвоста – 9–17 см.

2013/66 Alisher Navoiy nomidagi ...iston MK



## Tikonli bandiqutlar
## Колючие бандикуты

**Tikonli bandiqutlar** – bandiqutlar oilasiga kiruvchi sut emizuvchi hayvonlardir.

Ushbu hayvonlar ham tana tuzilishiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Ularning tanasi uzunligi 24 sm dan – 41 sm gacha, dumining uzunligi esa 9 –18 sm, umumiy vazni 1,1 kg dan 1,4 kg gacha bo'lishi mumkin.

**Колючие бандикуты** – род млекопитающих семейства бандикутовых.

Размеры варьируют от средних до крупных. Длина тела составляет 24 – 41 см, хвоста – 9–18 см, вес – 1,1–1,4 кг.







## Uzuntukli vombatlar
## Длинношёрстные вомбаты





**Uzuntukli vombatlar** yoki **jundor vombatlar** – Vomatsimonlar oilasiga mansub xaltali hayvonlar turi vakillaridir.

Uzuntukli vombatlar nisbatan ancha yirik hayvonlardir. Ularning tana uzunligi 77 sm dan 100 sm gacha boradi, dumining uzunligi esa 25 mm dan 60 mm gacha, tanasining og'irligi 19 kg dan –32 kg gacha yetishi kuzatilgan.

**Длинношёрстные вомбаты,** или **шерстоносые вомбаты** – род сумчатых семейства вомбаты.

Длинношёрстные вомбаты достаточно крупные животные. Длина тела от 77 до 100 см, хвоста – 25–60 мм, вес– 19–32 кг.



## Kaltatukli vombat
## Короткошёрстный вомбат





**Kaltatukli vombat** yoki **yalangburun vombat** Avstraliyada yashovchi xaltachali hayvonlar oilasiga mansub jonivordir.

Kaltatukli vombatlar anchagina yirik hayvonlar sanaladi. Ular tanasining uzunligi 70–90 sm bo'lib, umumiy vazni 20–34 kg gacha yetishi mumkin.

**Короткошёрстный вомбат,** или **голоносый вомбат** относится к сумчатым животным, живущим в Австралии.

Короткошёрстные вомбаты достаточно крупные животные. Длина тела от 70 до 90 см, вес – 20–34 кг.



## Tog‘ kuskusi
## Горный кускус



**Tog‘ kuskusi** – Burramus zotiga mansub yagona tur vakilidir.

Tog‘ kuskusi tashqi ko‘rinishidan sichqonga o‘xshab ketadigan xaltachali hayvondir: uning tana uzunligi 10–13 sm dumining uzunligi esa 13–14 sm, tana og‘irligi – 30–60 grammgacha bo‘ladi.

**Горный кускус** – единственный представитель рода Burramys.

Горный кускус – небольшое, похожее на мышь сумчатое: длина его тела всего 10–13 см, хвост длиннее туловища – 13–14 см; вес – 30–60 г.



## Olmaxonsimon kuskus

## Беличий кускус



**Olmaxonsimon kuskus** yoki **olmaxonsimon possum** – Olmaxonsimon kuskuslar turiga mansub, xaltachali letyagalar oilasining yagona vakilidir.

Ushbu hayvonlarning jussasi anchagina kichik bo'ladi. Ularning tana uzunligi 140 mm, dumining uzunligi esa 160 mm ni tashkil qiladi. Katta yoshdagi Olmaxonsimon kuskusning o'rtacha og'irligi taxminan 135 g atrofida bo'lishi mumkin.

**Беличий кускус,** или **беличий поссум** – единственный вид из рода беличих кускусов семейства сумчатых летяг.

Размеры мелкие. Длина тела составляет около 140 мм, хвоста – 160 мм. Средний вес взрослой особи составляет около 135 г.



**Kuzu**

**Кузу**





**Kuzu** yoki **popukdumli kuskuslar (Trichosurus)** – possumlar oilasiga mansub sut emizuvchi hayvon turidir.

Kuzularning tana uzunligi 32 sm dan 60 sm gacha bo'lib, dumining uzunligi 35 sm gacha boradi. Ushbu hayvon tanasining vazni esa 5 kg gacha yetishi qayd etilgan.

**Кузу,** или **кистехвостые кускусы (Trichosurus)** – род млекопитающих семейства поссумов.

Длина туловища кузу составляет от 32 до 60 см, а хвост достигает длины до 35 см. Вес – до 5 кг.



## Olachipor xaltachali suvsar
## Крапчатая сумчатая куница



**Olachipor xaltachali suvsar** – uncha katta bo'lmagan mushukdek keladigan hayvondir, uning tana uzunligi 45 sm, dumining uzunligi esa 30 sm gacha boradi. Mo'ynasining rangi qora tusdan to sarg'ish-malla tusgacha bo'lishi mumkin. Uning dumidan tashqari butun tanasi oq-olachipor dog'lar bilan qoplangan bo'lib, dumining uchi odatda oq tuslidir. Tumshug'i nisbatan uchliroq bo'ladi.

**Крапчатая сумчатая куница** – животное размером с небольшую кошку; длина тела 45 см, хвоста – до 30 см, вес до 1,5 кг. Цвет меха варьирует от чёрного до желтовато-коричневого; белые пятнышки покрывают всё тело за исключением пушистого хвоста, у которого белый кончик. Морда заострённая.



## Xaltachali qoradum suvsar
## Чернохвостая сумчатая куница





**Xaltachali qoradum suvsar** yoki **xaltachali Joffrua suvsari** – yirtqich xaltachalilar oilasining targ'il xaltachali suvsarlar turiga mansub hayvondir.

Ularning og'irligi 0,7 kg bilan 2 kg oralig'ida bo'ladi. Tanasining uzunligi boshi bilan qo'shib hisoblaganda 310 mm dan 400 mm gacha bo'lishi mumkin. Dumining uzunligi esa 250 mm dan 350 mm gacha bo'lishi kuzatilgan.

**Чернохвостая сумчатая куница,** или **сумчатая куница Жоффруа** – вид из рода полосатых сумчатых куниц семейства хищных сумчатых.

Вес колеблется от 0,7 до 2 кг. Длина тела с головой варьирует от 310 до 400 мм. Длина хвоста – от 250 до 350 мм.



- Koala
- Коала

**Koala** yoki **xaltali ayiq** – koalalar oilasiga mansub yagona tur vakili.

Koala tanasi baquvvat, biroq unchalik katta bo'lmagan hayvondir. Uning tana uzunligi 60–82 sm; og'irligi 5 kg dan 16 kg gacha bo'ladi. Dumi juda kaltaligidan u qadar ko'zga tashlanmaydi ham.

**Коала,** или **сумчатый медведь** – единственный вид семейства коал.

Коала – некрупный зверь плотного телосложения: длина его тела 60–82 см; вес от 5 до 16 кг. Хвост очень короткий, снаружи незаметен.





## Xaltachali chumolixo‘r
## Сумчатый муравьед





**Xaltachali chumolixo‘r** yoki **nambat** – xaltachali chumolixo‘rlar oilasiga kiruvchi sut emizuvchi hayvondir; u ushbu nomdagi oilaning yagona vakilidir.

Ushbu xaltachali hayvonning jussasi u qadar katta emas: tanasining uzunligi 17–27 sm, dumining uzunligi–13–17 sm dan iborat bo‘ladi. Katta yoshdagi bu turga mansub hayvonning umumiy vazni 280 g dan 550 g gacha yetishi mumkin.

**Сумчатый муравьед**, или **намбат** – млекопитающее семейства сумчатых муравьедов; единственный представитель одноимённого семейства.

Размеры этого сумчатого невелики: длина тела 17–27 см, хвоста – 13–17 см. Вес взрослого животного колеблется от 280 до 550 г.



## Avstraliya yexidnasi
## Австралийская ехидна

**Avstraliya yexidnasi** – yexidnasimonlar oilasiga mansub tuxum qo'yuvchi sutemizuvchi hayvon turidir.

Avstraliya yexidnasi proyexidnalarga nisbatan kichikroqdir: uning odatiy tana uzunligi–30–45 sm, tana vazni esa 2,5 kg dan 5 kg gacha bo'lishi kuzatilgan.



**Австралийская ехидна** – яйцекладущее млекопитающее семейства ехидн.

Австралийская ехидна мельче проехидны: её обычная длина – 30–45 см, вес от 2,5 до 5 кг.





## Proyexidna
## Проехидна





**Proyexidna** – yexidnalar oilasiga kiruvchi tuxum qo'yuvchi sut emizuvchi hayvondir.

Proyexidna oddiy yexidnalarga nisbatan ancha yirik bo'lib: uning tanasi uzunligi 77 sm, og'irligi 5–10 kg atrofidadir. Ushbu turga mansub hayvonlarning eng yirik va semizlari 16 kg dan ham ortiqroq tosh bosishi mumkin. Uchli ko'rinishdagi duminíng uzunligi 5–7 sm bo'ladi.

**Проехидна** – яйцекладущее млекопитающее семейства ехидн.

Проехидна крупнее обычных ехидн: длиной до 77 см и весом 5–10 кг. Самые упитанные особи весят более 16 кг. Хвост зачаточный, 5–7 см в длину.



## Yovvoyi quyon
## Дикий кролик

**Yovvoyi quyon** yoki **Yevropa quyoni** – asli kelib chiqishi janubiy Yevropadan bo'lgan quyon turidir. Ushbu quyon xonakilashtirilib, hozirgi kunda mavjud bo'lgan barcha quyon turlarining kelib chiqishiga sabab bo'lgan yagona turdir.

Bunday quyonlarning jussasi u qadar katta emas. Ular tanasining uzunligi 31–45 sm, gavdasining og'irligi 1,3–2,5 kg. Quloqlarining uzunligi, boshining uzunligidan biroz kichikroq bo'lib, 6–7,2 sm ni tashkil etadi.



**Дикий кролик, или европейский кролик** – вид кролика родом из южной Европы. Единственный вид кроликов, который был одомашнен и дал всё современное разнообразие пород.

Некрупный зверёк: длина тела 31–45 см, масса тела 1,3–2,5 кг. Длина ушей меньше длины головы, 6–7,2 см.



## O'rdakburun

## Утконос





**O'rdakburun** – suvda hayot kechiruvchi Avstraliyada yashaydigan sut emizuvchi hayvon turidir. U hozirgi kunda o'rdakburunlar oilasining yagona vakili hisoblanadi.

O'rdakburunning tana uzunligi 30–40 sm, dumining uzunligi esa 10–15 sm bo'ladi. Bu g'aroyib hayvonning vazni 2 kg gacha yetishi mumkin.

**Утконос** – водоплавающее млекопитающее обитающее в Австралии. Это единственный современный представитель семейства утконосовых.

Длина тела утконоса 30–40 см, хвоста – 10–15 см, весит он до 2 кг.



Emu
Эму



**Emu** – Avstraliyada hayot kechiradigan kazaursimonlar oilasiga mansub yirik qush turidir. Bu turga oid qushlar o'z tanalarining hajmiga ko'ra Tuyaqushlardan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Emular Avstraliya qit'asining deyarli barcha hududlarida uchraydi.

Bu turga mansub qushlarning tana uzunligi 150–190 sm, vazni esa 30–55 kg ni tashkil qiladi.

**Эму** – птица отряда казуарообразных, крупнейшая австралийская птица. Это вторая по величине птица после страуса. Эму распространён на большей части материка Австралия.

Длина 150–190 см, вес 30–55 кг.



**Dubulg'atumshuq kazuar**
**Шлемоносный казуар**





**Dubulg'atumshuq kazuar** yoki **oddiy kazuar** – kazuarsimonlar oila - sining eng ko'p tarqalgan turi vakilidir.

Dubulg'atumshuq kazuarlarning tana balandligi 1,5 m gacha yetishi mumkin, vazni esa 80 kg atrofida bo'ladi.

**Шлемоносный казуар,** или **обыкновенный казуар** – наиболее распространённый вид из семейства казуаровых.

Шлемоносный казуар достигает высоты 1,5 м и веса около 80 кг.



## Butaparast Kattapoy
## Кустарниковый большеног



**Butaparast Kattapoy** – Avstraliyada uchraydigan kattapoylar oilasiga mansub qush turidir.

Butaparast Kattapoyning tana uzunligi 60 sm dan 75 sm gacha, qanotlari esa yozilgan holatda 85 sm gacha yetishi mumkin. Ushbu tur Avstraliyada uchraydigan Kattapoylarning eng yirik vakilidir.

**Кустарниковый большеног** – австралийская птица из семейства большеногых.

Кустарниковый большеног длиной от 60 до 75 см, размах крыльев 85 см. Это самый крупный вид большеногов в Австралии.



## Ko‘zdor tovuq
## Глазчатая курица



**Ko‘zdor tovuq** – Avstraliyada uchraydigan Kattapoylar oilasiga mansub qush turi bo‘lib, u o‘z tuxumlarini bosib yotishi va ochib chiqishida hech bir qushga o‘xshamaydigan jihatlari bilan alohida ajralib turadi.

Ko‘zdor tovuqning tana uzunligi taxminan 60 sm bo‘ladi. Bu turga mansub xo‘rozlarning vazni 2 kg, makiyonlar vazni esa 1,5 kg dan 2 kg gacha yetishi mumkin.

**Глазчатая курица** – австралийская птица из семейства большеногых, известная своим методом высиживания кладки.

Глазчатая курица длиной примерно 60 см. Самец весит 2 кг, самка – от 1,5 до 2 кг.



- Avstraliya saqoqushi
- Австралийский пеликан



**Avstraliya saqoqushi (yoki Birqozoni)** – saqoqushsimonlar oilasiga mansub qush turidir. Ushbu turga mansub qushlarni Avstraliyaning markaziy qismidan tashqari, deyarli barcha hududlarida uchratish mumkin.

Ularning qanotlari yozilgan holatda 2,5 metrdan to 3,4 metrgacha yetishi mumkin, vazni 5 kg dan 6,8 kg gacha bo'ladi. Tana uzunligi esa 1,6–1,9 metrni tashkil qiladi.Avstraliya saqoqushi tumshug'ining uzunligi 40–50 sm dir.

**Австралийский пеликан** – птица семейства пеликановых. Населяет всю Австралию (кроме центральной части).

Размах крыльев у этого вида составляет от 2,5 до 3,4 метра. Вес – от 5 до 6,8 кг, длина тела 1,6 – 1,9 метра. Длина клюва 40–50 см.



## Avstraliya turnasi
## Австралийский журавль



**Avstraliya turnasi** – Avstraliya va Yangi Gvineya hududlarida o'troq hayot kechirishga moslashgan yirik qush turidir.

Ushbu haybatli qushning bo'y balandligi 161 sm, qanotlarining yozilgandagi holati 180 sm, vazni esa 6 kg bo'ladi.

**Австралийский журавль** – крупная птица семейства журавлей, ведущая оседлый образ жизни в Австралии и Новой Гвинее.

Крупная птица ростом около 161 см, размахом крыльев 180 см и весом 6 кг.



## Avstraliya ibisi
## Австралийский ибис



**Avstraliya ibisi** – Avstraliyada yashovchi ibissimonlar oilasiga mansub qush turi.

Avstraliya ibisining tana uzunligi 59–75 sm deb e'tirof etilsa-da, ularning o'rtacha uzunligi 68 sm bo'ladi. Bu qushlarning boshi patsiz va qora tuslidir. Yelkasi va qanotlari biroz yashilsimon va nafarmon tusda tovlanib turuvchi jigarrang bo'ladi.

**Австралийский ибис** – обитающая в Австралии птица из семейства ибисовых.

Австралийский ибис длиной от 59 до 75 см, при средней величине 68 см. Голова чёрная и без перьев. Спина и крылья коричневые с зелёным и лиловым отливом.



## Sariqtumshuq kolpis
## Желтоклювая колпица



**Sariqtumshuq kolpis** – Ibissimonlar oilasiga mansub botqoqlikda hayot kechiruvchi qush turidir.

Ushbu turga mansub qushlarning tana uzunligi 76 sm dan 1 m gacha yetadi. Vazni esa 1 814 gr dan 1 928 gr gacha yetishi mumkin. Ularning narlari, ya'ni erkak vakillarining jussasi nisbatan yirikroq, tumshug'i va oyoqlari ham odatda uzunroq bo'ladi.

**Желтоклювая колпица** – болотная птица семейства ибисовых.

Желтоклювая колпица длиной от 76 см до 1 м и достигает веса от 1 814 до 1 928 гр. Самцы крупнее и имеют более длинный клюв и ноги.



## Oqbosh qanjir
## Седоголовая поганка



**Oqbosh qanjir** – Avstraliya hamda Tasmaniya orollarida hayot kechiruvchi qanjirsimonlar oilasining ikki turidan biriga mansub qushdir.

Oqbosh qanjir–ko'rinishidan kichik, bo'yi ham pastdakkina qush. Bu turga mansub voyaga yetgan qushlarning tana uzunligi 29–31 sm bo'lib, vazni esa 250 gr gacha yetishi mumkin

**Седоголовая поганка** – один из двух видов белоголовых поганок, семейства поганковых птиц, обитающих в Австралии и Тасмании.

Седоголовая поганка – маленькая, приземистая птица. Взрослые особи достигают длины 29–31 см и весят около 250 гр.



## Avstraliya kengtumshug'i
## Австралийская широконоска



**Avstraliya kengtumshug'i** – haqiqiy o'rdaksimonlar oilasi vakili bo'lib, u daryo o'rdaklari turiga kiradi.

Bu qushning tana o'lchamlari 46–53 sm. Bu turdagi nar, ya'ni erkak qushlarining boshi havorang-ko'kish tusli bo'lib, ko'zlari oldida yuqoridan quyiga qarab tik tushgan o'roqsimon oq chizig'i bor.

**Австралийская широконоска** – вид настоящих уток рода речные утки.

Размером она 46–53 см. У селезеня голубовато-серая голова с вертикальным белым серпом перед глазами.



## Katta lira-qush
## Большая птица-лира

**Katta lira-qush** yoki **oddiy lira-dum** – Sharqiy Avstraliya hamda Tasmaniyada hayot kechiruvchi sayroqi qush turidir.

Bu turga mansub erkak qushlarning tana uzunligi 100 sm, modalariniki esa 86 sm bo'ladi. Patlari asosan jigarrang tuslidir. Dumining uzunligi 60 sm tashkil etib, uning shakli qadimgi yunonlarning cholg'u asbobi lirani eslatadi.

**Большая птица-лира**, или **обыкновенный лирохвост** – певчая птица, обитающая в восточной Австралии и в Тасмании.

Самец длиной до 100 см, самка до 86 см. Оперение преимущественно коричневое. Хвост достигает до 60 см имеет форму лиры.





## Oqdumli chumchuqsimon ko‘kto‘rg‘oq
## Белохвостый райский зимородок



**Oqdumli chumchuqsimon ko‘kto‘rg‘oq** – Avstraliya hamda Yangi Gvineyada hayot kechiradigan chumchuqsimonlar oilasiga mansub qush turidir.

Ushbu mitti qushchaning tana uzunligi atigi 23 sm ni tashkil etadi. Dumidagi patlari esa barcha chumchuqsimonlarniki kabi oq tusli va uzun bo‘ladi.

**Белохвостый райский зимородок** – вид зимородков, обитающий в Австралии и Новой Гвинее.

Белохвостый райский зимородок длиной 23 см. У него типичные для райских птиц длинные белые перья хвоста.



## Cho‘qqidum burgut
## Клинохвостый орёл



**Cho‘qqidum burgut** – kunduzi faol hayot kechiruvchi qirg‘iysimonlar oilasiga mansub yirtqich qush turidir. Ular Avstraliya va Tasmaniyada ko‘p uchraydi.

Ushbu turga mansub qushlarning tana uzunligi 0,85–1,05 m bo‘lib, qanotlarining yozilgandagi holati 2,3 m gacha yetishi mumkin. Odatda ularning o‘rtacha vazni 4,2 kg, ba’zan esa 5,3 kg ni tashkil qiladi. Bu qushlar past tekisliklarda ham, tog‘larda ham birdek hayot kechiradi.

**Клинохвостый орёл** – дневная хищная птица семейства ястребиных. Встречается в Австралии, на Тасмании.

Достигает 0,85 –1,05 м в длину и 2,3 м в размахе крыльев. В среднем их вес по 4,2 кг, а иногда и 5,3 кг. Обитает как на равнинах, так и в горах.



## Avstraliya qo'ng'ir qirg'iyi

## Австралийский бурый ястреб



**Avstraliya qo'ng'ir qirg'iyi** – qirg'iysimonlar oilasiga kiruvchi yirtqich qush turidir. Bu turdagi qushlar Avstraliyada hamda Tasmaniya orollarida juda keng tarqalgan.

Ushbu qushlarning o'rtacha tana uzunligi 45 sm dan 55 sm gacha bo'lib, qanot yozgandagi holati o'rtacha 75–95 sm gacha yetishi mumkin. Katta yoshdagi erkak qirg'iyning vazni 220 g atrofida, urg'ochisining vazni esa 355 g atrofida bo'ladi.

**Австралийский бурый ястреб** – вид хищных птиц из семейства ястребиных. Распространён в Австралии, Тасмании.

Средняя длина тела составляет от 45 до 55 см, размах крыльев в среднем 75–95 см. Самки обычно крупнее самцов. Вес взрослого самца около 220 г, а вес самки около 355 г.



## Avstraliya jig‘altoyi
## Австралийский чеглок

**Avstraliya jig‘altoyi** – lochinsimonlar oilasiga mansub yirtqich qush turi.

U nisbatan kichik lochin hisoblanadi. Uning rangi – tusi odatdagi jig'altoylarnikiga o'xshaydi: boshi hamda tanasining ustki qismi to'q kulrang, quyi qismi esa sarg'imtil yuza bo‘ylab tushgan olachipor dog'lar bilan qoplangan, “yanoqlari” hamda bo‘yni oq tusda bo'ladi.



**Австралийский чеглок** – вид хищных птиц рода соколов.

Мелкий сокол. Окраска схожа с окраской обыкновенного чеглока: голова и верх тела тёмно-серые, низ тела в пестринах по охристому фону, белые „щёки“ и горло.



## Oqsoqol lochin
## Седобородая





**Oqsoqol lochin** yoki **Avstraliya miqqiyi** – lochinlar oilasiga mansub yirtqich qush turidir.Ushbu tur vakillari Avstraliya qit'asida, Rojdestvo orolida, Yangi Gvineyada, Yangi Zelandiyada, Yangi Kaledoniyada juda keng tarqalgan.

Ushbu qush ko'rinishidan nisbatan mayda lochin bo'lib, uning tanasi uzunligi 31–35 sm dan iborat.

**Седобородая**, или **австралийская пустельга** – вид хищных птиц рода соколов. Населяет Австралию, остров Рождества, Новую Гвинею, Новую Зеландию, Новую Каледонию.

Мелкий сокол, длина 31–35 см.



## Avstraliya qumoyi
## Австралийская сипуха

**Avstraliya qumoyi** – qumoysimonlar oilasiga mansub qush turidir.

Bu qush qanotining uzunligi taxminan 340 mm dan 350 mm gacha bo'ladi. Dumining uzunligi esa 140 mm dan 150 mm gacha yetishi mumkin.



**Австралийская сипуха** – птица семейства сипуховых.

Крылья длиной примерно 340 до 350 мм, хвост от 140 до 150 мм.



## Kakkusimon ignapoy boyqush
## Кукушечья иглоногая сова



**Kakkusimon ignapoy boyqush** – Avstraliya mintaqasida uchraydigan boyqushlar oilasining eng mitti qushi, shu bilan birga, juda keng tarqalgan turi vakilidir.

Mazkur qushning tana uzunligi 28 sm dan 36 sm gacha bo'ladi. Patlari tanasining yuqori qismida to'q jigarrang tusli. Katta-katta ko'zlari esa sariq rangdadir.

**Кукушечья иглоногая сова** – это самый маленький и самый часто встречающийся вид сов австралийского региона.

Длина тела от 28 до 36 см. Оперение на верхней стороне тёмно-коричневое. Глаза большие, жёлтого цвета.



## Qirol to‘tisi
## Королевский попугай



**Qirol to‘tisi** – to‘tiqushsimonlar oilasiga mansub qush turidir.

Ushbu qushning tanasi uzunligi 40 sm, dumi esa 21 sm ni tashkil etadi. Yelkasi va qanotlari yashil tusda, tanasining quyi qismi, tomog‘i, bo‘yni hamda boshi yorqin qizil rangda bo‘ladi.

**Королевский попугай** – птица семейства попугаевых.

Длина тела 40 см, хвоста 21 см. Спина и крылья зелёные, нижняя часть тела, горло, шея и голова – ярко-красные.



## Zotdor yashil-qizil to'tiqush
## Благородный зелёно-красный попугай



**Zotdor yashil-qizil to'tiqush** – to'tiqushsimonlar oilasiga mansub qush turidir. Ushbu turdagi qushlar Avstraliyaning shimolida hamda Yangi Gvineyada hayot kechiradilar.

Bu turdagi qushning tana uzunligi 25–40 sm; vazni esa 450 g ni tashkil etadi.

**Благородный зелёно-красный попугай** – птица семейства попугаевых. Обитает на севере Австралии и на Новой Гвинее.

Длина тела 35–40 см; вес до 450 г.



## Pushtirang kakadu
## Розовый какаду



**Pushtirang kakadu** – kakadusimonlar oilasining pushti rangli yagona turi hisoblanadi. Bu turdagi qushlarni Avstraliyada ko'p uchratish mumkin.

Pushtirang kakaduning tana uzunligi 37 sm ni, dumi 17 sm ni, qanotlarining uzunligi esa 27 sm ni tashkil etadi; vazni 300–400 g atrofida bo'ladi.

**Розовый какаду** – птица семейства какаду. Единственный вид рода. Обитает в Австралии.

Длина тела 37 см, хвоста 17 см, крыла 27 см; вес около 300–400 г.



## Qora kakadu
## Чёрный какаду



**Qora kakadu** – kakadusimonlar oilasining qora rangli yagona turi hisoblanadi. Ushbu qushlar asosan Avstraliyaning shimolida hayot kechiradi.

Bu qushning jussasi nisbatan ancha yirik bo'lib, tanasining uzunligi 70–80 sm, dumi 25 sm dan iborat; vazni esa 500–1000 g ni tashkil qiladi.

**Чёрный какаду** – птица семейства какаду. Единственный вид рода. Обитает на севере Австралии.

Довольно крупный попугай с длиной тела 70–80 см, хвоста 25 см; вес 500–1000 г.



## Shaq-shaq filemon

## Крикливый филемон



**Shaq-shaq filemon** yoki **shang'i rohibqush** – Avstraliyada uchraydigan asalxo'rlar (Meliphagidae) oilasiga mansub sayroqi qush turidir.

Shaq-shaq filemonning tana uzunligi 35 sm gacha yetadi. Shaq-shaq filemonning ovozi baland, xirildoq va shaqillovchi bo'lganligi uchun unga shunday nom berilgan.

**Крикливый филемон,** или **крикливый монах** – австралийская певчая птица семейства медо-сосовых (Melipha-gidae).

Крикливый филемон достигает величины 35 см. У крикливого филе-мона громкий, хриплый и каркающий голос.



## Qamishzor astrildi

## Тростниковый астрильд



**Qamishzor astrildi** – chumchuqsimonlar oilasiga mansub mitti qush turidir.

Qamishzor astrildini Avstraliyaning g'arbiy hududlaridan tortib, to shimoliga qadar bo'lgan barcha hududlarda uchratish mumkin.

Ushbu qushchaning tana uzunligi 11 sm gacha yetishi mumkin. Bu turga xos erkak qushning yuz qismi, peshonasi va tomog'ining ostki qismi qizil rangda bo'ladi.

**Тростниковый астрильд** – птица семейства вьюрковых ткачиков. Тростниковый астрильд распространён от запада до севера Австралии.

Тростниковый астрильд достигает длины 11 см. Лицо, а также лоб и подбородок у самца красного цвета.



## Taroqli timsoh
## Гребнистый крокодил

**Taroqli timsoh** yoki **dengiz timsohi**– haqiqiy timsohlar oilasiga mansub sudralib yuruvchi hayvondir.

Taroqli timsoh – timsohlar orasida eng yirigi hisoblanadi. Uning tana uzunligi garchi odatda asosan 5 m deb hisoblansada, ular ichida 6–7 m uzunlikka egalari ham uchrab turadi. Bu turdagi katta yoshdagi timsohlarning umumiy vazni aksariyat hollarda 400–500 kg keladi.



**Гребнистый крокодил,** или **морской крокодил** – пресмыкающееся семейства настоящих крокодилов.

Гребнистый крокодил – самый крупный среди крокодилов. Достигает длины 6 –7 м, хотя обычно не крупнее 5 м. Взрослые весят обычно 400–500 кг.



## Chuchuk suvda yashovchi Avstraliya timsohi
## Австралийский пресноводный крокодил





**Chuchuk suvda yashovchi Avstraliya timsohi** – Avstraliyaning shimoliy hududlaridagi chuchuk suvli havzalarda yashovchi haqiqiy timsohlar oilasiga mansub sudralib yuruvchi hayvondir.

Bu hayvonlarning tana uzunligi odatda 2,1 m bo'ladi. Tumshuqlari uchli, va ular o'ta o'tkir tishlarga egadir.

**Австралийский пресноводный крокодил** – пресмыкающееся семейства настоящих крокодилов, обитает в пресных водоёмах на севере Австралии.

Длина обычно не более 2,1 м. Морда необычно узкая, с острыми зубами.



## Bahaybat echkemar
## Гигантский варан



**Bahaybat echkemar** yoki **katta echkemar** – echkemarlar oilasiga kiruvchi kaltakesaklar turiga xos hayvondir. Ushbu hayvon Komod echkemaridan keyingi eng yirik kaltakesak hisoblanadi.

Uning tana uzunligi, dumi bilan qo'shib hisoblaganda 2,5 m keladi, lekin bu turga xos aksariyat hayvonlarda bu ko'rsatkich 1,6 m dan oshmasligi qayd etilgan.



**Гигантский варан,** или **большой варан** – вид ящериц из семейства варанов. Крупнейшая ящерица мировой фауны после комодского варана.

Длина тела с хвостом 2,5 метра, но большинство особей достигают не более 1,6 метра.



## Olachipor echkemar

## Пёстрый варан





**Olachipor echkemar** – echkemarlar oilasiga mansub kaltakesak turi.

Bu turga mansub echkemarlarning eng maksimal uzunligi, dumi bilan qo'shib hisoblaganda, 2 m gacha yetadi va hatto undan ham uzunroq bo'lishi mumkin, biroq, ularning o'rtacha tana uzunligi umuman 1,5 m atrofida bo'ladi. Tanasining ustki qismi aksariyat hollarda to'q ranglarda, masalan ko'kimtir-qora tusda bo'lib, ular ko'plab oq, sariq yoki qaymoqrang dog'lar bilan qoplangandir.

**Пёстрый варан** – вид ящериц из семейства варанов.

Максимальная длина тела с хвостом до 2-х и более метров, но в среднем – около 1,5 метров. Окраска верхней стороны тела чаще всего тёмная, сине чёрная с многочисленными рассеянными белыми, жёлтыми или кремовыми пятнами.



## Mertens echkemari
## Варан Мертенса



**Mertens echkemari** – Avstraliyada keng tarqalgan echkemarlar oilasiga kiruvchi kaltakesak turidir.

Mertens echkemarining tana uzunligi 160 sm gacha yetishi mumkin. Ushbu tur Varanus kichik turiga oid sudralib yuruvchilarning eng mayda vakili hisoblanadi.

**Варан Мертенса** – вид ящериц из семейства варанов, распространенный в Австралии.

Варан Мертенса может достигать в длину 160 см. Это один из мелких представителей подрода Varanus.





## Shlegel echkemari
## Варан Шлегеля





**Shlegel echkemari** yoki **Qorabosh echkemar** – echkemarlar oilasiga kiruvchi kaltakesak turlaridan biridir.

Ushbu turga mansub sudralib yuruvchilarning maksimal tana uzunligi, dumi bilan birgalikda 80 sm gacha yetadi. Tanasi yuqori qismining rangi och-kulrang tusdan to'q-jigarrang tusgacha bo'lishi mumkin.

**Варан Шлегеля,** или **Черноголовый варан** – вид ящериц из семейства варанов.

Максимальная длина тела с хвостом до 80 сантиметров. Окраска верхней стороны тела от светло-серой до тёмно-коричневой.



## Yashil echkemar
## Зелённый варан

**Yashil echkemar** yoki **zumrad echkemar** – echkemarlar oilasiga kiruvchi kaltakesak turidir.

Uning maksimal tana uzunligi, dumi bilan birgalikda 75 sm gacha boradi. Ushbu turdagi sudralib yuruvchi tanasining yuqori qismi yashil zumrad tusli boʻlib, unda qora xol-xol dogʻlardan hosil boʻlgan oʻziga xos halqachalar shaklini koʻrish mumkin.

**Зелённый варан,** или **изумрудный варан** – вид ящериц из семейства варанов.

Максимальная длина тела с хвостом до 75 сантиметров. Окраска верхней стороны тела изумрудно-зелённая с чёрными пятнами, образующими узкие кольца.





## Halqadum echkemar
## Кольцехвостый варан



**Halqadum echkemar** – echkemarlar oilasiga kiruvchi kaltakesak turidir.

Uning maksimal tana uzunligi, dumi bilan birgalikda 60 sm ni tashkil etadi. Tanasining yuqori qismining rangi to'q jigarrang tusda, to'r shaklidagi sariq va oq dog'lar bilan qoplangan, quyi qismi esa och tusli bo'ladi.

**Кольцехвостый варан** – вид ящериц из семейства варанов.

Максимальная длина тела с хвостом до 60 сантиметров. Тело тёмно-коричневое с жёлто-белым сетчатым рисунком. Нижняя сторона тела светлая.



## Mitchell echkemari
## Варан Митчелла



**Mitchell echkemari** – echkemarlar oilasiga kiruvchi kaltakesak turidir.

Ushbu tur vakillarining maksimal tana uzunligi dumi bilan birgalikda 60 sm bo'ladi. Dumi juda uchli ko'rinish kasb etib, umurtqalari bo'ylab yorqin chiziq o't-gan bo'ladi.

**Варан Митчелла** – вид ящериц из семейства варанов.

Максимальная длина тела с хвостом до 60 сантиметров. Имеет сильно сжатый с боков хвост с выраженным килем вдоль позвонков.



## Uzundum tog' echkemari
## Длиннохвостый скальный варан



**Uzundum tog' echkemari** yoki **Glauer echkemari** – ushbu sudralib yuruvchi ham echkemarlar oilasiga kiruvchi kaltakesak turidir.

Uning maksimal tana uzunligi, dumi bilan birgalikda 40 sm atrofida bo'ladi. Boshi, tanasi va panjalarining yuqori qismi qoramtir yoki to'q jigarrang tusli bo'ladi. Tanasi bo'ylab ko'ndalang joylashgan noaniq shakldagi oqish yirik dog'larni ko'rish mumkin.

**Длиннохвостый скальный варан**, или **варан Глауэра** – вид ящериц из семейства варанов.

Максимальная длина тела с хвостом около 40 сантиметров. Окраска верхней стороны головы, тела и лап черноватая или тёмно-коричневая, на теле есть неясные поперечные ряды крупных более светлых пятен.



Timor echkemari

Тиморский варан

**Timor echkemari** – echkemarlar oilasiga kiruvchi kaltakesak turi.

Ushbu sudralib yuruvchining maksimal tana uzunligi, dumi bilan birgalikda 60 sm gacha yetishi mumkin. Tanasining yuqori qismi odatda och kulrang tusdan to qora ranggacha bo'lishi kuzatiladi, tanasi bo'ylab oqish yoki sarg'ish tusdagi bir qarashda ko'zmunchoqni eslatuvchi turkum dog'lari bor.



**Тиморский варан** – вид ящериц из семейства варанов.

Максимальная длина тела с хвостом до 60 сантиметров. Окраска верхней стороны тела чаще всего от серой до чёрной, с серией белых или желтоватых пятен и глазков с более тёмной серединой.



## Soqoldor agama
## Бородатая агама





**Soqoldor agama** – agamasimonlar oilasiga mansub kaltakesak turidir. Ushbu tur o'z nomini bo'yin qismidagi o'ziga xos qopchig'i tufayli olgan bo'lib, ushbu qopchiq jonivor biror-bir xavf-xatarga duch kelganda yoki urchish mavsumidagi xatti-harakatlari jarayonida pufakdek shishib, to'q tusga kiradi.

Bu turga mansub kaltakesaklarning katta yoshdagisining tana uzunligi 50–60 sm gacha yetishi mumkin.

**Бородатая агама** – ящерица семейства агамовых. Получила своё название из-за характерного шейного мешка, который в моменты опасности или брачного заигрывания раздувается приобретая темный окрас.

Размеры взрослой особи могут достигать 50–60 сантиметров.



## Yopinchiqli kaltakesak
## Плащеносная ящерица

**Yopinchiqli kaltakesak** – agamasimonlar oilasiga kiruvchi kaltakesakdir.

Yopinchiqli kaltakesaklarning tana uzunligi 80 sm dan 100 sm gasha yetishi mumkin. Bu turga mansub urg'ochi kaltakesaklar erkaklariga nisbatan birmuncha kichkina bo'ladi. Ularning tanasi rangi sarg'ish-jigarrang tusdan to qora-jigarrang tusgacha bo'lishi kuzatiladi.



**Плащеносная ящерица** – ящерица из семейства агамовых.

Длина плащеносной ящерицы составляет от 80 до 100 см, самки значительно меньше самцов. Окраска от жёлто-коричневой до чёрно-коричневой.





Molox
Молох





**Molox** yoki **Ofatkasratki** – agamasimonlar oilasiga mansub kaltakesakdir. Ushbu nomdagi yagona tur vakili. Ushbu kaltakesak o'z nomini ma'jusiylarning ilohi Molox nomidan olgan bo'lib, rivoyatlarga ko'ra ushbu iloh sharafiga doimiy ravishda odamlar qurbonlik qilingan.

Ushbu kaltakesakning tana uzunligi 22 sm dan iborat.

**Молох** – ящерица из семейства агамовых. Вид монотипического рода. Название ящерица получила по имени языческого божества Молоха, которому, по преданию, приносили человеческие жертвы.

Длина тела до 22 см.



- Kaltadumli ssink
- Короткохвостый сцинк

**Kaltadumli ssink** yoki **shunchaki kaltadum** – Avstraliyada yashovchi ko'k-tilli ssinklarning kaltadumli turidir.

Ushbu turga xos kaltakesaklarning birqancha rangdagilari uchraydi: ular to'q-jigarrang tusdan to qaymoqranggacha bo'lishlari mumkin. Ularning tana uzunligi juda kam hollardagina 36 sm dan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lishi mumkin.



**Короткохвостый сцинк,** или **короткохвост** – короткохвостый вид синеязыковых сцинка, обитающий в Австралии.

Встречается несколько расцветок ящерицы: от тёмно-коричневого до кремового. Длина тела редко превышает 36 см.





## Ametist bo'g'ma iloni
## Аметистовый питон





**Ametist bo'g'ma iloni** yoki **safsartusli bo'g'ma ilon** – Avstraliyada uchraydigan eng katta ilon turidir.

Bu ilonning tanasi nihoyatda mukammal bo'lib, boshida qalqonsimon yirik tangachalari bor. Tangasining rangi odatda jigarrang yoki sarg'imtil-jigarrang bo'lishi kuzatiladi. Yelkasida betartib joylashgan burchakli dog'lari bor. Uzunligi 8,5 m gacha yetishi mumkin bo'lsa-da, asosan 5 m atrofidagilari ko'proq uchraydi.

**Аметистовый питон** – самая крупная змея Австралии.

Тело змеи стройное, с крупными щитками на голове. Обычно коричневого или желтовато-коричневого цвета с неправильной формой тёмными угловатыми пятнами на спине. Длина до 8,5 м, но обычно до 5 м.



## Yashil bo‘g‘ma ilon
## Зелённый питон

**Yashil bo‘g‘ma ilon** yoki **daraxtda yashovchi bo‘g‘ma ilon** – soxtaoyoqlilar (Boidae) oilasiga kiruvchi rombsimon bo‘g‘ma ilonlar turidir.

Ushbu ilonning uzunligi 150 sm dan to 180 sm gacha bo‘ladi, ba’zi urg‘ochi vakillarining uzunligi hatto 200 sm gacha yetishi kuzatilgan.

**Зелённый питон,** или **древесный питон** – вид ромбических питонов семейства ложноногых (Boidae).

Длина от 150 до 180 см, взрослых самок – до 200 см.







## Taypan iloni
## Тайпаны



**Taypan iloni** – aspidlar oilasiga mansub o'ta zaharli ilon turidir.

Taypanlar turli olimlarning baholashicha, zaharining kuchliligi bo'yicha dunyodagi barcha ilonlar orasida uchinchi yoki to'rtinchi o'rinda turadi. Shuningdek, ular Avstraliyada yashovchi zaharli ilonlarning ham eng yirigi hisoblanadi. Bu turdagi ilonlarning uzunligi 3 m dan 3,3 m gacha yetishi mumkin.

**Тайпаны** – род очень ядовитых змей семейства аспидов.

Тайпан – по различным оценкам занимает третье или четвёртое место по ядовитости на свете и самая крупная (до 3–3,3 м длиной) ядовитая змея Австралии.



## Qora ilonlar
## Чёрные змеи

**Qora ilonlar** yoki **qora aspidlar** – Aspidlar oilasiga mansub ilon turidir.

Bu turga xos ilonlarning uzunligi aksariyat hollarda 2 m atrofida bo'lib, ular asosan o'zlarining rangi bilan ajralib turadi. Bu ilonlarning nomi garchi qora ilon bo'lsa-da, ularning ba'zilari jigarrang tusli ham bo'lishi mumkin, ammo asosan , qora tuslilari keng tarqalgan.





**Чёрные змеи,** или **чёрные аспиды** – род змей семейства аспиды.

Большинство змей достигают около 2 м в длину и отличаются по цвету. Некоторые виды коричневые, другие могут быть черными.



## Qo‘shtirnoq toshbaqa
## Двухкоготная черепаха





**Qo‘shtirnoq toshbaqa** – shu nom bilan ataluvchi yumshoq tanali toshbaqalar oilasining yagona vakilidir.

Qo‘shtirnoq toshbaqalar Avstraliyaning Shimoliy hududlaridagi hamda Yangi Gvineya janubidagi chuchuk suvli ko‘rfazlar va havzalarda yashaydilar.

**Двухкоготная черепаха** – единственный вид одноимённого семейства мягкотелых черепах.

Двухкоготные черепахи обитают лишь в пресноводных лагунах и водоёмах Северной территории Австралии и юга Новой Гвинеи.



## Aga
## Ага





**Aga** yoki **Aga qurbaqasi** – dumsiz qurbaqalar oilasiga mansub ham suvda, ham quruqlikda yashovchi qamishzor qurbaqasidir.

Aga – yirikligi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda turuvchi qurbaqadir (eng yirik qurbaqa – Blomberg qurbaqasi) : uning tana uzunligi 24 sm gacha yetishi e'tirof etilgan. Ammo odatda aksariyat hollarda bu ko'rsatkich 15–17 sm ni tashkil etadi. Bu turdagi qurbaqaning og'irligi esa 1 kg dan ham oshib ketadi. Erkak qurbaqalar urg'ochilariga nisbatan anchagina ixcham bo'lishi kuzatiladi.

**Ага,** или **жаба-ага** – земноводное семейства жаб отряда бесхвостых.

Ага – вторая из самых крупных жаб (самая большая – жаба Блом-берга): длина её тела достигает 24 см (обычно 15–17 см), масса – более килограмма. Самцы немного мельче самок.



## Marjonpanja litoriya

## Коралловопалая литория





**Marjonpanja litoriya** – daraxt qurbaqalari oilasiga mansub, quruqlikda yashovchi kalta dumli qurbaqa turidir.

Bu turdagi urg'ochi qurbaqalarning tana uzunligi –13 sm gacha, erkaklarining uzunligi esa 7 sm gacha yetadi. Bunday qurbaqalar 15–20 yilgacha umr kechirishi qayd etilgan.

**Коралловопалая литория** – лягушка из рода бесхвостых земноводных из семейства квакш.

Самки имеют размеры – до 13 см, самцы – до 7 см. Продолжительность жизни: до 15–20 лет.



## Qizilko‘z litoriya
## Красноглазая литория



**Qizilko‘z litoriya** – daraxt qurbaqalari oilasiga kiruvchi quruqlikda yashovchi qurbaqa turidir.

Bu turdagi qurbaqalar Avstraliyaning sharqiy hududlarida, janubda Sidney shahridan to shimolga tomon Kvislend shahriga qadar bo‘lgan o‘rmonlarda kun kechiradi.

Bu turdagi qurbaqalarning tana uzunligi 60–65 mm gacha bo‘ladi.



**Красноглазая литория** – земноводное семейства квакш.

Обитает в лесах на востоке Австралии от Сиднея на юге до центрального Квинсленда на севере.

Размеры квакши до 60–65 мм.



## Tillarang litoriya

## Золотистая литория



**Tillarang litoriya** – daraxt qurbaqalari oilasiga kiruvchi quruqlikda yashovchi dumsiz qurbaqa turidir.

Bu turdagi qurbaqalarni Avstraliyada, Yangi Zelandiyada ko'plab uchratish mumkin. Ular odatda kechki qorong'ulik tushish paytida ayniqsa faol hayot kechiradilar.

Bu turdagi qurbaqalarning tana uzunligi 80–85 mm gacha bo'ladi.

**Золотистая литория** – лягушка из рода бесхвостых земноводных из семейства квакш.

Встречается в Австралии и в Новой Зеландии, ведет сумеречный образ жизни.

Размеры квакши до 80–85 мм.



## So'galdor baqa
## Бородавницы

**So'galdor baqa** – Avstraliya qurbaqalari oilasiga mansub quruqlikda yashovchi dumsiz Avstraliyaga xos baqa turidir.

Ushbu baqa uncha katta bo'lmagan hajmga egadir. Uning tana uzunligi atigi 7,5 sm dan oshmaydi.

**Бородавницы** – род бесхвостых земноводных из семейства австралийских жаб.

Лягушки небольшого размера, не более 7,5 сантиметров в длину.





## Changaksimon baqa

## Жерлянкоподобная лягушка





**Changaksimon baqa** – Avstraliya qurbaqalari oilasiga mansub quruqlikda yashovchi dumsiz Avstraliyaga xos baqa turidir.

Ushbu baqa turining erkak vakillari urg'ochilariga nisbatan biroz yirikroq bo'lishi qayd etilgan. Ularning tana uzunligi 5 sm gacha boradi, urg'ochilarining tana uzunligi esa asosan 4 sm atrofida bo'ladi.

**Жерлянкоподобная лягушка** – австралийский вид бесхвостых земноводных из семейства австралийских жаб.

Самцы крупнее самок и могут достигать длины 5 см, в то время как самки достигают 4 см.



## Kurakdor qurbaqa
## Роющая лопатница

**Kurakdor qurbaqa** – baqalar oilasiga mansub Avstraliya qurbaqasi turidir.

Uning tana uzunligi 65 mm. Ushbu qurbaqaning qorin qismi terisi mayda so'galchalar bilan qoplangan, uning bo'y-ni va ko'krak qismi sip-silliq bo'ladi.

**Роющая лопатница** – вид австралийских лягушек семейства квакш .

Длина до 65 мм. Кожа живота гранулированная, в то время как шея и грудь гладкие.







**Tovusko'z gerkules kapalagi**

**Павлиноглазка геркулес**





**Tovusko'z gerkules kapalagi** – tovusko'z kapalaklar oilasiga mansub tunda hayot kechiruvchi kapalak turidir.

Ushbu turdagi kapalaklar dunyodagi eng katta kapalaklardan biri bo'lib, Avstraliyada uchraydigan eng yirik kapalakdir; mazkur turga mansub kapalaklarning erkak vakillarining qanoti uzunligi yoyilgan holatda 27 sm gacha yetadi. Qanotlarining hajmi ham boshqa barcha kapalaklarnikiga nisbatan ancha kattadir.

**Павлиноглазка геркулес** – ночная бабочка из семейства павлиноглазок. Одна из самых больших бабочек в мире, и самая большая в Австралии; размах крыльев самок может достигать 27 см. Обладает самой большой площадью крыльев среди бабочек.



## Yelkansimon Uliss kapalagi
## Парусник Улисс

**Yelkansimon Uliss kapalagi** – yelkansimon kapalaklar oilasiga mansub kunduz kuni hayot kechiruvchi kapalak turidir.

Ushbu turdagi kapalaklarning qanotlari yoyilgan holatda 140 mm gacha yetadi. Bu kapalak qanotlarining sidirg'a qismi qora rangda bo'lib, erkak vakillari qanoti atrofida keng hoshiyalar mavjuddir, ushbu hoshiyalarning rangi turlicha, ular odatda och havorang tusdan, to to'q ko'k tusgacha bo'lishi mumkin.

**Парусник Улисс** – дневная бабочка семейства парусники.

Размах крыльев до 140 мм. Основной фон крыльев чёрный, у самца с крупными полями, цвет которых варьирует у разных подвидов от ярко голубого до синего и тёмно-синего.





## Priam Ornitoptera kapalagi

## Орнитоптера приам



**Priam Ornitoptera kapalagi** – yelkansimon kapalaklar oilasiga mansub kunduz kuni hayot kechiruvchi kapalak turidir. Ikki qismdan iborat va betakror o'z nomini ushbu tur kapalaklari qadimgi yunon afsonalari qahramoni bo'lmish, Troya davlatining eng so'nggi shohi Priam nomidan olgan.

Bu turga kiruvchi kapalaklarning qanoti yoyilgan holatda 140 mm atrofida bo'lishi qayd etilgan.

**Орнитоптера приам** – крупная дневная бабочка семейства парусники. Видовое биноминальное название дано в честь Приама– персонажа древнегреческой мифологии, последнего царя Трои.

Размах крыльев около 140 мм.



## Chirmovuq mazaxo'rak kapalagi
## Бражник вьюнковый



**Chirmovuq mazaxo'rak kapalagi** – mazaxo'rak kapalaklar oilasiga mansub kapalak turidir.

Ushbu tur kapalaklari o'z oilasining yevropadagi vakillari orasida kattaligi bo'yicha (o'likbosh kapalakdan keyin) ikkinchi o'rinda turadi. Ularning qanoti yozilgan holatda 110–122 mm gacha yetishi mumkin. Shuningdek ushbu tur kapalaklari o'ziga xos,80 mm dan 100 mm gacha yetadigan uzun xartumchaga ham egadir.

**Бражник вьюнковый** – бабочка из семейства бражниковых.

Является вторым по величине (после мёртвой головы) европейским представителем своего семейства. Размах его крыльев достигает 110–122 мм; хоботок очень длинный: от 80 до 100 мм.



## Avstraliya admirali kapalagi
## Австралийский адмирал



**Avstraliya admirali kapalagi** yoki **Sariq kapalak** – nimafaldidlar oilasiga mansub kunduz kuni hayot kechiruvchi kapalak turidir.

Sariq kapalakning qanotlari yozilgan holatda 48–55 mm bo'lib, bu uning uchish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. E'tirof etishlaricha, bu turdagi kapalaklar Avstraliyadan to Yangi Zelandiyagacha bo'lgan masofaga uchib bora oladilar.

**Австралийский адмирал,** или **жёлтый бабочка –** дневная бабочка из семейства нимфалид.

Жёлтый адмирал имеет размах крыльев 48–55 мм и является хорошим летуном. Считается, что он способен проделать путь из Австралии в Новую Зеландию.



## Kaktus qizilkapalagi
## Огнёвка кактусовая



**Kaktus qizilkapalagi** – qizilkapalaklar oilasiga mansub kapalak turidir. Ushbu turga xos kapalaklarning qurtlari kaktus o'simligi tanasida yashab, shu yerda oziqlanadilar.

Ularning urg'ochi vakillarining qanoti yozilgan holatda 27–40 mm bo'lsa, erkaklarida bu ko'rsatkich 23–32 mm ni tashkil etadi.

**Огнёвка кактусовая** – вид бабочки из семейства огнёвки. Гусеницы этого вида живут и питаются на кактусах-опунциях.

Размах крыльев у самок 27–40 мм, у самцов –23–32 мм.



## Qizilgardon o‘rgimchak
## Красноспинный паук



**Qizilgardon o‘rgimchak** – asli vatani Avstraliya bo‘lgan to‘r to‘quvchi o‘rgimchaklar oilasiga kiruvchi o‘rgimchak turidir. Ushbu tur ayni paytda qora o‘rgimchaklar turi vakili sanaladi. Barcha o‘rgimchak turlaridagi kabi, qizilgardon o‘rgimchaklarning ham urg‘ochi vakillari erkaklaridan kattaroq bo‘ladi. Ya’ni bu turga xos urg‘och o‘rgimchaklar 3 mm dan 4 mm gacha yetishi mumkin.

Bu turdagi o‘rgimchaklar Avstraliyadagi eng xavfli o‘rgimchaklar hisoblanadi.

**Красноспинный паук** – вид пауковых из семейства пауков-тенетников, родиной которого является Австралия. Вид относится к роду чёрных вдов. Как и у всех пауков самка красноспинного паука больше самца; самка длиной от 3 до 4 мм.

Считается самым опасным пауком на территории Австралии.



## Qizil buldog chumoli
## Красный муравей-бульдог



**Qizil buldog chumoli** – Avstraliyada uchraydigan ibtidoiy buldog chumolilar oilasiga kiruvchi tur vakilidir. Ushbu tur vakillari kuchli nish va zaharga ega bo'lib, ularning chaqishi kishida juda kuchli allergiya yoki anafilaktik falajga sabab bo'lishi mumkin.

Ushbu turning har xil toifalaridagi vakillari tanasi uzunligi turlicha bo'lib, ulardan ishchi chumolilarining tana uzunligi – 14–26 mm, urg'ochi chumolilarning tanasi 27–29 mm, erkak chumolilarning uzunligi esa 17–21 mm bo'lishi qayd etilgan.

**Красный муравей-бульдог** – вид примитивных муравьёв-бульдогов Австралии. Обладают сильным жалом и ядом, способным вызвать сильную аллергическую реакцию и анафилактический шок.

Длина тела разных каст: 14–26 мм (рабочие), 27–29 (самки), 17–21 (самцы).



## Qora buldog chumoli
## Чёрный муравей-бульдог



**Qora buldog chumoli** – Avstraliyada uchraydigan ibtidoiy buldog chumolilar oilasiga kiruvchi tur vakilidir. Ushbu tur vakillari ham nihoyatda kuchli nish va zaharga ega bo'lib, ularning chaqishi natijasida 3% kishilarda juda kuchli allergiya yoki anafilaktik falaj kuzatiladi. Bu turga xos ishchi chumolilar tana uzunligi 12–14 mm, urg'ochi vakillarining tanasi–14–16 mm, erkak chumolilarining uzunligi esa 11–12 mm dan iborat bo'ladi.

**Чёрный муравей-бульдог** – вид примитивных муравьёв-бульдогов Австралии. Обладают сильным жалом и ядом, способным у 3 % людей вызвать сильную аллергическую реакцию и анафилактический шок.

Длина рабочих муравьёв составляет 12–14 мм: самок – 14–16, самцов – 11–12 мм.



## Go'shtxo'r chumoli
## Мясной муравей

**Go'shtxo'r chumoli** – bu tur vakillari (Meat eater ant) o'z nomini nihoyatda tajovuzkor fe'lga ega ekanliklari tufayli olishgan. Binobarin Avstraliyaning tubjoy aholisi ushbu chumolilardan o'lgan hayvonlarning tanasini tozalashda keng foydalanishadi.

Ular ko'rinishidan kichikroq, tanasi uzunligi atigi 7 mm atrofida bo'lgan qizil boshli chumolilardir.



**Мясной муравей** – своё название (Meat eater ant) этот вид, вероятно, получил из-за своего агрессивного поведения, благодаря которому местные жители использовали его для очистки останков животных.

Мелкие красноголовые муравьи длина около 7 мм.



## Osiyo chevar chumolisi

## Азиатский муравей-портной



**Osiyo chevar chumolisi** – asosan daraxtlarda hayot kechirishga moslashgan chevar chumolilar oilasiga mansub tur vakilidir.

Ushbu tur vakillarining tanasi yashil tusdadir, shu sababli ham ularni ( green ant, Green tree ant) chevar chumolilar deb ataydilar. Ularning koʻkragi va oyoqlari och jigarrang tusli, qorinchasi esa qizgʻish-olovrang boʻlishi mumkin.

**Азиатский муравей-портной** – вид муравьёв-портных, специализированных к обитанию на деревьях.

Зелённого цвета муравьи (отсюда их название green ant, green tree ant), грудка и ноги светло-коричневые, брюшко может быть оранжево-красным.

# MUNDARIJA

# СОДЕРЖАНИЕ



MUNDARIJA

СОДЕРЖАНИЕ






9500 сум

**AVSTRALIYA HAYVONOT OLAMI**

*Sutemizuvchilar, qushlar, sudralib yuruvchilar, hasharotlar*

Original maket va dizayn
*Shuhrat Mirfayozovniki*

Muharrir *Muhiddin Omon, Tohira Alimova*
Texnik muharrir *Tatyana Smirnova*
Musahhih *Fotima Ortiqova*

Nashr. lits.№ 154. 14.08.09. Bosishga 18.01.2013-y. da ruxsat berildi.
Bichimi 60x84 $^{1}/_{8}$. Ofset bosma. 11,16 shartli bosma toboq. 10,3 nashr tobog'i.
Adadi 2000 nusxa. 41 raqamli buyurtma.
Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100128. Toshkent. Shayxontohur ko'chasi, 86.

**www.gglit.uz**
**E-mail: iptdgulom@sarkor.uz, info@gglit.uz**